



RAQAMLI TA'LIM: ISTIQBOLLAR VA XAVFLAR

B.J.Muhammadiyev

TDPU, o'qituvchi

H. Usmonqulova

TDPU, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15314231>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 25- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 30- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

raqamli ta'lim, raqamli tengsizlik, texnologik innovatsiyalar, ta'lim sifati, ta'lim sifatiga bo'lgan tahdid, masofaviy o'qitish, ta'limning kelajagi, raqamli avlod.

ABSTRACT

Mazkur maqolada raqamli ta'limning imkoniyatlari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqayotgan bo'lsa-da, ular bilan birga muayyan xavf-xatarlar ham yuzaga chiqmoqda. Maqolada raqamli ta'limning afzalliklari, jumladan, bilim olish imkoniyatining kengayishi, moslashuvchanlik va innovatsion texnologiyalari bilan uyg'unligi ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim muammolari, ta'lim sifatiga bo'lgan tahdid, raqamli tengsizlik kabi masalalar ham muhokama qilinadi.

Zamonaviy dunyo raqamli texnologiyalar davrni boshdan kechirmoqda va bu texnologiyalar davri ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. An'anaviy darsliklar, devoriy gazetalar, xarita, doska va bo'r o'rnini interaktiv ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellektga asoslangan o'quv dasturlari egallamoqda. Ammo raqamli ta'limning yildan yilga rivojlanishi va ta'lim tizimida keng tadbiiq etilishi faqatgina yutuqlardan iborat emas, u bilan birga yangi xavf-xatarlar ham paydo bo'lmoqda. Raqamli ta'limning istiqbollari quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Bilim olish imkoniyatining kengayishi. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar bilim olishda ko'proq imkoniyatga ega bo'ladilar. Internet orqali onlayn kurslarga qatnashish, internetdan kerakli ma'lumotlarni tez va oson topish va o'rganish mumkin. Masofaviy darslar orqali ta'lim olish oldingi davrlarga nisbatan ancha osonlashdi. Bu imkoniyat raqamli ta'limning eng ustun jihatlaridan biri desak ham bo'ladi, chunki foydalanuvchilarning ham vaqti ham mablag'i tejalishiga imkon yaratmoqda.

2. Moslashuvchanlik va individuallashtirilgan ta'lim. Raqamli ta'lim orqali har bir o'quvchi uchun alohida ta'lim dasturi tuzilishi mumkin, ya'ni o'quvchining bilim darajasi tahlil qilinib, unga mos materiallar tavsiya qilinadi. U o'quvchi individual holatda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

3. Interaktiv va innovatsion texnologiyalar. Interaktiv platformalar dars jarayonini yanada samarali qiladi, o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Sensorli doskalar, virtual laboratoriyalar, onlayn test tizimlari bularning barchasi o'qituvchilar va o'quvchilarning faolligini ta'minlaydi. Interaktiv vositalar o'quvchilarni darsga faol ishtirok etishga undaydi, murakkab mavzularni vizual tarzda tushunish imkoniyatini beradi. Vulqonlarning otilishi, sunami yoki iqlim o'zgarishi jarayonlarini tushuntirish uchun Google Earth VR yoki NASA Earth Observatory kabi platformalar yordamida interaktiv xaritalar va 3D

modellardan foydalanilsa bo'ladi yoki tarix darslarida- virtual muzeylar va rekonstruksiya orqali o'quvchilar qadimiy shaharlar, tarixiy janglar yoki arxeologik topilmalarni virtual ekskursiyalar orqali o'rganishlari mumkin. Raqamli ta'lim o'quvchilarning tasavvur va tafakkurlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

4. Baholash tizimining qulayligi. Bundan tashqari, raqamli test tizimlari orqali o'quvchilarning bilimlarini avtomatik tarzda baholasa bo'ladi. An'anaviy qog'oz-testlar o'rniga raqamli texnologiya orqali testlar yaratib o'quvchilar bilimini nazorat qilsa va avtomatik tarzda baholasa bo'ladi. Bu tizim ayniqsa choraklik, yillik imtihonlarda qo'l keladi. Raqamli ta'limning yutuqlari bilan birga, qator to'siqlarni ko'rish mumkin:

1. Ta'lim sifatiga bo'lgan tahdid. Sifatga bo'lgan tahdid – bu ta'lim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni anglatadi. Raqamli ta'limda bu quyidagi jihatlarda namoyon bo'lishi mumkin:

- o'qituvchi nazoratining kamligi; an'anaviy ta'limda o'qituvchi o'quvchilar bilan o'zara suhbatlar, fikr almashishlar, ko'z aloqalari-eye contact orqali dars o'tadi. Bu jarayon o'quvchilarning bilimlarni oson va tushunarli qabul qilishiga sabab bo'ladi. Onlayn ta'limda esa buning imkoni yo'q;

- o'quvchilarning mustaqil o'zlashtirish mas'uliyati; raqamli ta'limda ko'p narsa o'quvchining o'z intizomi va motivatsiyasiga bog'liq bo'ladi. Tabiatan dangasa yoki motivatsiyasi sust bo'lgan o'quvchilar raqamli ta'limda materiallar va ma'lumotlarni yaxshi o'zlashtira olmasliklari mumkin;

- jonli dars jarayonining, jonli muloqotning, amaliy mashg'ulotlarning o'rnini onlayn darslar, video ma'ruzalar, onlayn testlar bosa olmasligi mumkin. Bu holat interaktivlikning yetishmasligi hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchi faqatgina kuzatuvchi bo'lib qolishi, bu esa ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi.

2. Raqamli tengsizlik yuzaga kelishi. Raqamli tengsizlik– bu jamiyatdagi turli qatlamlarning raqamli texnologiyalarga ega bo'lishi va ulardan foydalanish imkoniyatidagi tafovutni ifodalovchi tushuncha. Bu farq texnologik infratuzilma, internet tezligi, raqamli savodxonlik darajasi va zamonaviy qurilmalarga kirish imkoniyati kabi omillarga bog'liq:

- texnologik infratuzilmaning yetishmovchiligi; Internet va zamonaviy texnologiyalar barcha ta'lim muassasalarida yetarlicha emas, qishloqlarda internet, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish sharoiti mavjud emas;

- iqtisodiy omillar: Raqamli qurilmalar-ekran, noutbuk, planshet kabi qurilmalar yetarlicha emasligi, ya'ni har bir ta'lim muassasasi bunday qurilmalar bilan to'la qonli ta'minlanmagan;

- raqamli savodxonlikning yetishmasligi; texnologiyalar mavjud bo'lsa-da, dars jarayonida ulardan qanday samarali foydalanish haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lmasa, katta yoshdagi o'qituvchilar yoki maxsus bilimga ega bo'lmaganlar uchun raqamli dunyoga moslashish qiyinchilik tug'dirishi mumkin;

- til to'siqlari: ko'plab raqamli resurslar chet tillarida, asosan ingliz tilida bo'lgani sababli, ushbu tilni bilmaydigan kishilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish qiyin bo'lishi mumkin.

Hozirgi rivojlangan zamonda raqamli ta'limni joriy etish ta'lim tizimini rivojlanishiga, ijobiy natijalar ko'rsatishiga sabab bo'la oladi. Buning uchun aholi o'rtasida raqamli savodxonlikni rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan dars davomida me'yorda foydalanish,

internet infratuzilmalarini yaxshilash, barcha ta'lim muassassalarini bosqichma-bosqich raqamli texnologiya bilan ta'minlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2022-yil 14-mart) – “Raqamli ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi”.
2. UNESCO (2021). The Future of Education and Digital Learning: Global Trends and Challenges.
3. Aliyeva, N. M., & Rasuleva, M. R. (2024). Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollari. Eurasian Journal of Technology and Innovation.

